



## XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 5 - yanvar

VI-85-2-7-104-K/24

Toyloq tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Xujamurodovning hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qaroriga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining sakson beshinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Xujamurodovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov), tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (J.Tursunov) hamda tumandagi tijorat banklari va mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilari bilan birgalikda:

aholiga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish;

kreditlarni so'ndirish muddatlari va tasdiqlangan jadvallarga qat'iy rioya qilishni, kreditlar bo'yicha qarzdorlarning muddati o'tgan qarzdorliklarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha barcha zarur chora-tadbirlarni ko'rish;

mahalladagi xonadonlarni yer uchastkalaridan foydalanish darajasi, oilalarning daromad manbaalari, daromadli mehnat bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishlarini xonadonbay o'rganish va kreditga bo'lgan ehtiyojlarini yo'nalishlar bo'yicha shakllantirish;

mahallalarda mavjud tadbirkorlarning muammolarini yechishga hamda iqtisodiy o'sishning drayver sohasida yangi tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirishga ko'mak berish;

tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarga biznes loyihalarni tayyorlashda konsultativ ko'mak berish va uni amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoringini qilib borish;

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini oshirish bo'yicha zarur choralarini ko'rish;

tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi fuqarolarni biznes asoslariga o'qitish tizimini tashkil etish va ularni tadbirkorlikka yo'naltirish;

bank kreditlari hisobiga ishga tushirilgan va bugungi kunda past quvvatlarda ishlayotgan korxonalar bo'yicha sabablarni aniqlab, ularning to'liq quvvatda ishlashiga amaliy yordam ko'rsatish choralarini ko'rish;

kreditlarni ustuvor ravishda dasturlar bo'yicha avval kreditlardan foydalanmagan aholi va tadbirkorlik subyektlariga ajratish choralarini ko'rish;

sektor rahbarlari bilan birgalikda aholini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va servis, tikuvchilik, parrandachilik, bog'dorchilik, asalarichilik, chorvachilik va baliqchilik yo'nalishlarida bandligini ta'minlash yangi ish o'rni yaratish choralarini ko'rish;

oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarga imtiyozli bank kreditlarini ajratishda muntazam yordam berish;

“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga daromadli mehnat bilan band qilish yoki ularni doimiy mehnat bilan

bandligini ta'minlash (ish o'rinlari yaratish)ga qaratilgan loyihalarga yo'naltirilishida mahallalardagi hokim yordamchilari mas'uliyatini oshirish chorasini ko'rish;

dasturlar doirasida mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilarining tavsiyanomalariga asosan moliyalashtirilgan loyihalarni har oy yakuni bo'yicha maqsadlilikini monitoring qilib borish vazifalari yuklansin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Raxmatova), "Qo'shchinor" gazetasi tahririyati (M.Yuldashova)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Mirzayev) hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari (J.Xujamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi

**Kengash raisi o'rinbosari**



**Z.Avazov**